

HARAKAT - MAVJUDLIK BELGISI

JDPI 2- bosqich talabasi Tilovova Hilola

Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. J.Jo'rayev

Annotatsiya:

Insonning yashayotganligini bildiruvchi mezon, albatta, uning harakatlanoyatgani. Harakati orqali o'ziga, atrofi olamiga, jamiyatga naf yetkazadigan amallar bajarib, bu amallari ko'p yillik, kerak bo'lsa, boqiylikka muhrlanib, inson degan nom o'z mohiyatini namoyon qiladi.

Tayanch so'zlar: Robinzon, ishtiyoq, dengiz sayohati, orol, yaratuvchanlik, tajribakorlik, Jumaboy

...Bu shunday narsaki, kimga tushsa, biror bir ishiga undagani- undagan. Shu ishni qilsang, tog'ni ag'dargandek yelkang yengillashadi. Qilmasang, ko'nglingning tubida bir tugundek turib qoladi. Ko'p vaqtlargacha senga turtingan misol xalal beraveradi..

"Cholga juda rahmim keldi, uydan hech qayoqqa jilmaslikka, dengiz sayohatlari to'g'risida o'ylamaslikka qattiq qaror berdim.

Afsus!- Oradan bir necha kun o'tar- o'tmas bu yaxshi niyatlarimdan nom-nishon qolmadi. Ko'ngil yana dengiz qirg'oqlarini tusay boshladi.."[1.3]. - Shunday qutulib bo'lmaydigan tuyg'u bu - ishtiyoq.

Ota - onasi qarshiligini bildirgandan so'ng u sayohatdan voz kechishga ko'ngan edi. O'ziga so'z bergandi ham. Lekin dengizgashtalikka, sayohatparastlikka undayotgan bu qizg'in ishtiyoqi uning maqsadi sari yo'l solishiga turtki bo'ldi. Shunday qizg'in ishtiyoq egasidir Robinzon. Yo'lda pushaymonliklarga sabab bo'lgan voqealar ko'plab bo'ldi, ular g'aroyibotlarga ulanib, qahramonimizni chorlayverdi.

"Meni goho umidsizlik bosardi, men yolg'izlikdan nihoyatda zerikar edim. Shu og'ir hissiyotni yengmoq uchun qo'limga qalam olib, yolg'izlik va g'ariblikning yaxshi tomonlari ham bor - ku, deb o'zimga ancha- muncha taskin berishga urindim"[2.45]. Shu kechinmalar bilan u sabrliligini, shukr qila olishini ko'rsatadi: hamrohlari kabi yo'q bo'lib ketmagani, ayni turgan yerida ham omon yashash mumkinligini aytib, o'zini ovutadi.

Robinzod - aqlli tadbirkor:

...Ikkinchi yashikda bir qismi Ovrupo puli, yana bir qismi Braziliya puli bo'lgan o'ttiz olti funtsterlingcha oltin va kumush pul bor edi. Bu pullarni qadr - qimmatiga kulgim qistab ketdi.

- Keraksiz axlat, sening menga endi nima keraging bor, - dedim, - hozir shu arzimas pichoqlardan bittasiga bu oltinning hammasini jon deb berar edim. Endi ortiqcha yuksan, keraging yo'q, dengiz tagiga yo'q bo'lib ket! Yerda yotgan bo'lsang, bukilib olishga ham arzimaysan...Keyin yana mulohaza qilib, uni o'rab, cho'ntagimga solib qo'ydim... Endi birinchi kundan buyon fikr- yodimni band qilgan masalani hal qilishga butkul kirishmog'im mumkin: Menga yirtqich hayvonlar ham, vahshiy odamlar ham hujum qilolmasligi uchun nima qilmog'im kerak? G'orni kovlayinmi, yoki chodir tikaymi? O'ylab- o'ylab har ikkisini ham qilmoqchi bo'ldim[3.39].

Robinzon bir qancha hunarlar egasi: O'zi uchun kerakli buyumlarni yasadi, foydali kashfiyotlar qildi. Ba'zilarini oldindan bajarib ko'rgan bo'lsa, ba'zilarini ilk bor shu yerda tajribaladi. Yo'qdan borlik yaratadi, goh o'z mehnatini qadrllovchi puxta dehqon bo'ldi - goh ehtiyotkor kulol, goh qayiqsoz. Hayvonlarni ham o'ziga, tiliga o'rgata olgan g'ayratli qahramon bo'ldi u. Lekin nima bo'lsa ham, qanday talofat, chigalli tabiat sinovlariga duch kelsa ham ularga hozirjavoblik bildira oldi. Mushkulliklarga mehnatkashligi bilan javob qaytardi. G'ayrat va matonat orqali chora izladi. To'fon yuz berishi, sheriklarini yo'qotishi, kemasi halokatga uchrashi, kimsasiz orolga borib qolishi - kutilgan va kutilmagan voqealar uning kuchini, irodasini, hushyorligini mustahkamlab bordi, nazarimizda.

Eng xavfli, qo'rqinchli sinov Robinzon orolida jirkanch odamxo'rlarning paydo bo'lgani edi. **"Istasam, biror pana joydan turib bu vahshiylarni ko'ra olar edim, ammo bir- birining go'shtini yeydigan bu qonxo'r darrandalarga tikilmoq menga juda jirkanch bo'lganidan ularni ko'rishni istamadim. Odamlarda shu qadar vahshiyona ahloq borligi haqidagi fikr meni qiynab - ezg'ilab tashladi**[4.101]. Asarning bu voqealar aks etgan joyiga kelib, har bir o'quvchida bu xunik manzaraga nisbatan nafrat jonlanib ketishi tabiiy. Robinzon bu hodisani qayta ko'rmaslikni istar, har doim ehtiyotkorlikni o'rnatgan edi. Asirlikdan qochgan Jumaboy Robinzon tufayli qutulib qoldi, deyish mumkin. Odamxo'rlarga mansub bunday maxluqni vahshiylar to'dasidan qutqarib, kulbasiga olib kelgani, unga ism qo'ykiyintirgani, gapirishni o'rgatgani, hayot tarzi bilan tanishtirgani- yu turmushda kerak bo'ladigan narsalarni anglatgani Robinzonning alohida qahramonligini ifodalaydi.

"Uning eng qimmatli xususiyati shu bo'ldi: u juda qunt bilan, e'tiqod qo'yib o'qidi va gaplarimga astoydil quloq soldi. Undan nima talab qilayotganimni tushunganida, o'zimni behad baxtiyor his qildim. Unga dars berish va

suhbatlashish men uchun ko'ngilxushlik bo'ldi"[5.123]. Robinzon shunday bir odamxo'rni yeyish kerak bo'lgan narsani iste'mol qilishga o'rgatib, hatto odam go'shtini yemaslikka so'z berish darajasigacha olib keldi. U uchun Jumaboy yaxshigina shogird bo'ldi. O'zi ham bundan ancha yengil, ancha shod edi. Vaqt o'tib hatto shunday xulosaga ham keldi u: "**Hech bir kishi bunday mehribon, sadoqatli, ixlosmand do'stni hech qachon topgan emas. U menga hech achchiqlanmas va mug'ombirlik qilmas, hamma vaqt astoydil xizmat qilar, muloyim, mo'min edi, u menga xuddi o'z otasidek mehr qo'yib qoldi. Aminmanki, agar lozim bo'lib qolsa, u meni deb jonini ham ayamaydi...avvalo bir- birimizning fikrimizni tushunish uchun uni o'z vatanim tilida gapirishga o'rgatmoqqa ahd qildim, u zehnli shogird bo'lib chiqdi...**[6.123]

Robinzon Kruzoni o'qir ekanmiz, yakunda uni o'zini- o'zi tarbiyalagan, metin bir odam qilib ulg'aytirgan tajribakor inson sifatida taniymiz. Uning yaratgan g'aroyib muhiti, jamiyati tahsinga, e'tirofga loyiq. Kishi qayerda bo'lmasin, harakatda davom etishi - bu juda kerak. Zero uning sinovli, sirli, masalaviy holatlarga munosib yechim kiritish olishi yuksak ong sohibi - inson ekanligining muhim, ko'rsatkich omilidir. Buyuk nemis adibi, shoir Gyotening ushbu fikri mazkur o'ringa mohiyatan joiz keladi, o'yimcha. "**Harakat - mavjudot ibtidosidir**". Mavjudlikning belgisi bo'lgan harakatlar, darhaqiqat, ezgu rejalar, maqsadlar mahsuli bo'lib, bunday insonlar o'z amallarini, nomlarini boqiylikka muhrlaydi. Robinzon haqiqatdan ko'p hodisni boshidan o'tkazadi. Odam tarbiyaladi. Muqaddimada oldiga qo'ygan maqsadini ortig'i bilan bajardi, deyishimiz mumkin. Mazkur asar mutoalasidan so'ng o'ziga, o'z maqsadlariga sodiqlik, yaratuvchanlik, yaxshilikparvarlik kabi xususiyatlarni o'quvchi yana bir bor kashf eta oladi, nazarimizda.

Adabiyotlar:

1. D.Defo. Robinzon Kruzo.

2. I. V. Gyote. Faust: Tragediya. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1972.